

“Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o‘rganishda fan va innovatsiyalar uyg‘unligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya



O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida “Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o‘rganishda fan va innovatsiyalar uyg‘unligi” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy konferensiya bulib o‘tdi. Ushbu ayyomga puxta

hozirlik ko'rildi. Avvalo institut o'ziga xos bayramona bezatildi.



Oliy o'quv yurti hovlisiga kiraverishda konferensiya ishtirokchilari karnay-surnay sadolari ostida kutib olindi.



Anjuman doirasida madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etildi. Uni O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Yo'ldoshev kirish so'zi bilan ochib, ushbu xalqaro konferensiyaning mazmun-mohiyati, uni ilm-fanni rivojlantirishda tutgan o'rni va ahamiyatiga to'xtaldi.



Tadbir dasturi doirasida qadimiy an'analar, urf-odatlar, madaniyatimiz, san'atimiz taraqqiyotida muhim o'rin to'tgan folklor, til va madaniyat masalalarini o'zida mujassam etgan kuy, qo'shiq, turli sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Xalqimizda bugungi Ro'zai ramazon oyida keksalar,

yoshi ulug'lar, ustozlarni eslash, ular holidan xabar olishdek yaxshi udum bor. Bu safar ham shunday bo'ldi.





Mazkur an'anaga sodiq qolingani holda mazkur oliygohda uzoq yillar ishlagan, hozirda keksalik gashtini surayotgan ustozlar holidan xabar olish maqsadida "Bayram karvoni" tashkil etildi. Institut jamoasi ushbu faxriylarning uylariga tashrif buyurib, piru badavlat otaxonu, mehribon onaxonlarni bayram bilan murobakbod etishdi, sovg'alar ulashildi, ularga hurmat-ehtirom ko'rsatildi. Anjuman dorasida "San'atkorlar" ko'shkida maqomxonlik, "Muhammad Yusuf" nomidagi ko'shkda esa mushoiralar tashkil etildi. Tadbir dasturiga ko'ra, ishtirokchilar institutdagi innavatsion, ilmiy-ijodiy ishlar ko'rgazmasini ko'zdan kechirishdi.



Shundan keyin anjuman o'z ishini boshladi. Xalqaro konferensiyani O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori, filologiya fanlari doktori, professor, tashkiliy qo'mita raisi Ibrohim Yo'ldoshev kirish so'zi bilan ochdi.



ZOOM dasturi orqali tashkil etilgan, dunyoning Turkiya, Rossiya, Ozarbayjon singari davlatlari, Markaziy Osiyo mintaqasida joylashgan respublikalar vakillari ishtirok etgan konferensiyada O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev tomonidan "Baxshi" so'zi va uning etimologiyasi mavzuida ma'ruza qilindi.



Ozərbaycanistonlik filologiya fanlari doktori, professor Ramiz Asker "Xamsa" asarining ozərbaycan tiliga tarjiması haqida o'z fikrlarını bildirdi.

Shuningdek, anjumanda "Epik asarda motivlar tadqiqi", "Metodologiyi i texnologiyi universalnix kompetensiy" (Tatariston), " Iskender Zülkarneyn ve Lokman Hekimye yer veren özbek masal ve efsanelerinin kaynaklari (Turkiya), "Mavsumiy marosim qo'shiqlari" singari qator mavzularda ma'ruzalar qilindi.



Xalqaro konferensiya kunning ikkinchi yarmida sho'balarga bo'lingani holda o'z ishini davom ettiradi. O'zining dolzabligi bilan ajralib turgan, qizg'in bahs-munozalarga boy bo'lgan anjumanda tadbir ishtirokchilari tomonidan folklor san'atini ilmiy o'rganish masalalari, tilshunoslik va badiiy matn tadqiqining dolzarb muammolari, madaniy meros va ta'lim tizimidagi ilmiy-innovatsion yondashuvlar kabi mavzular muhokamalar markazida bo'ldi. "Folklor, til va madaniyat masalalarini ilmiy o'rganishda fan va innovatsiyalar uyg'unligi" mavzuida o'tkazilgan xalqaro anjumanda ilgari surilgan g'oyalar, bildirilgan fikrlar, aytilgan taklif va mulohazalardan kelib chiqilgani holda tegishli tegishli qaror qabul qilindi. Tavsiyalar ishlab chiqildi.

Matbuot kotibi